



O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki

FAKTORING XIZMATLARI BOZORI SHARHI

2025-yil III chorak

Toshkent 2025


Mazkur **Faktoring xizmatlari bozori sharhi** O'zbekiston Respublikasida mahalliy va xalqaro faktoring xizmatlarining joriy holati, ularning rivojlanish yo'nalishlari, hududlar va iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi qamrovini hamda kredit tashkilotlarining faktoring xizmatlarida qo'llanilayotgan diskont stavkalari to'g'risidagi ma'lumotlarni yoritadi.

I. Mahalliy faktoring amaliyotlari tahlili


2025-yilning III choragi davomida kredit tashkilotlari tomonidan jami **6,6 trln** so'mlik faktoring xizmatlari ko'rsatilib, ushbu xizmatlarning **6,1 trln** so'mi yoki **93 foizi** tijorat banklari va **453 mlrd** so'mi yoki **7 foizi** mikromoliya tashkilotlari hissasiga to'g'ri kelgan (1-rasm).

Bunda, ko'rsatilgan faktoring xizmatlarining **3,3 trln** so'mi yoki **50 foizi** raqamli faktoring xizmatlari hissasiga to'g'ri kelib, ushbu faktoring xizmatlarining **1,8 trln** so'mi (56 foiz) "Ozplanet" elektron faktoring platformasi, **1,5 trln** so'mi (44 foiz) "Finmakon" elektron faktoring platformasi tomonidan amalga oshirilgan (2-rasm).

1-rasm. Kredit tashkilotlari tomonidan ko'rsatilgan faktoring xizmatlari hajmi, mlrd so'm




2-rasm. Faktoring xizmatlari hajmi, mlrd so'm



Biznes vakillarining aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojlarini faktoring xizmati orqali moliyaviy ta'minlashining ortishi natijasida 2024-yilda faktoring xizmatlari bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich dekabr oyida **630 mlrd** so'mga yetgan bo'lsa, joriy yilning iyun, iyul oylarida **1,1 trln** so'mdan va sentyabr oyida **849 mlrd** so'm miqdorida faktoring xizmatlari ko'rsatildi. (3-rasm).

*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-avgustdagi PF-109-sonli Farmoni imzolanganidan keyin, kredit tashkilotlari tomonidan tadbirkorlik subyektlariga 2024-yilning so'nggi 4 oyi hamda 2025-yilning yanvar-sentyabr oylari davomida jami **7,8 trln** so'm miqdorida faktoring xizmatlari ko'rsatildi.*

3-rasm. Kredit tashkilotlari tomonidan 2024-yil va 2025-yil yanvar-sentyabr oylarida faktoring xizmatlarining dinamikasi, mlrd so'm



Manba: : Markaziy bank ma'lumotlari


2025-yilning 9 oyi davomida tadbirkorlik subyektlariga **davlat ulushi mavjud tijorat banklari** tomonidan jami **3,4 trln** so'm (56 foiz), **xususiy banklar** tomonidan jami **2,7 trln** so'm (44 foiz) miqdoridagi faktoring xizmatlari taqdim qilingan.

Xususan, eng ko'p faktoring operatsiyalari davlat ulushi mavjud tijorat banklarida, **Asaka bank** (1 trln so'm shundan, elektron platforma orqali 508 mlrd so'm), **O'zsanoatqurilishbank** (735 mlrd so'm, 695 mlrd so'm), **O'zmilliybank** (659 mlrd so'm, 450 mlrd so'm) hissalariga to'g'ri kelgan.

Shuningdek, xususiy banklar orasida **Kapitalbank** – 1,2 trln so‘m (31 mlrd so‘m), **Hamkorbank** – 564 mlrd so‘m (246 mlrd so‘m) va **Asia Alliance bank** – 252 mlrd so‘m (143 mlrd so‘m) bilan faktoring xizmati ko‘rsatishda yetakchilik qilgan.

Shu bilan birga, **mikromoliya tashkilotlari** tomonidan ushbu davrda jami **453 mlrd** so‘mlik debitorlik qarzdorliklar moliyalashtirilgan (4-rasm).

4-rasm. Kredit tashkilotlari kesimida 2025-yilning 9 oyida ko‘rsatilgan faktoring xizmatlari miqdori, mlrd so‘m




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Bugungi kunda, tijorat banklarining qisqa muddatli moliyalashtirish xizmatlarida faktoring xizmatlarini alternativ yechim sifatida keng ko‘lamda ommalashtirish choralari ko‘rilmoqda.

Natijada, 2024-yilning II yarim yilligida ko‘rsatilgan faktoring xizmatlarining qisqa muddatli moliyalashtirishga nisbati 1 foizdan (iyul) 6,1 foizga (dekabr) oshgan bo‘lsa, joriy yilning yanvar-sentyabr oylarida ushbu ko‘rsatkich **4,5 foizdan 14,1 foizga** yetdi (5-rasm).


5-rasm. 2024-yil va 2025-yilning 9 oyida ko'rsatilgan faktoring xizmatlarining qisqa muddatli moliyalashtirishdagi ulushi, foiz



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Hududlar kesimida joriy yilning yanvar-sentyabr oylarida ko'rsatilgan faktoring xizmatlarining asosiy qismi **Toshkent shahri** (2,9 trln so'm yoki 43,6 foiz), **Andijon viloyati** (1,5 trln so'm yoki 23,2 foiz), **Toshkent viloyati** (506 mlrd so'm yoki 7,7 foiz) va **Farg'ona viloyatiga** (345 mlrd so'm yoki 5,2 foiz) to'g'ri kelgan bo'lsa, **Surxondaryo** viloyati (39 mlrd so'm yoki 0,6 foiz), **Sirdaryo viloyati** (33 mlrd so'm yoki 0,5 foiz) va **Jizzax viloyatida** (28 mlrd so'm yoki 0,4 foiz) eng past ko'rsatkich qayd etilgan(6-rasm).

6-rasm. Hududlar kesimida 2025-yilning 9 oyida ko'rsatilgan faktoring xizmatlari miqdori, foiz




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Mijozlarning tashkiliy shakli bo'yicha ko'rsatilgan faktoring xizmatlarining taqsimotida eng yuqori ulush mas'uliyati cheklangan jamiyatlarga **3,8 trln** so'm yoki **58 foiz** miqdorida faktoring xizmatlari ko'rsatilgan bo'lib, aksiyadorlik jamiyatlariga **1,6 trln** so'mni (24,6 foiz) tashkil etgan.

Shuningdek, chet el kapitali ishtirokidagi korxonalar **933 mlrd** so'mlik (14,2 foiz) hamda xususiy, oilaviy korxonalar va fermer xo'jaliklarining **210 mlrd** so'mlik (3,2 foiz) debitorlik qarzlari faktoring xizmatlari orqali moliyalashtirilgan (7-rasm).


7-rasm. Faktoring xizmatlarining korxonalar tashkiliy shakli bo'yicha taqsimoti, mlrd so'm



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Jami faktoring xizmatlarining 244 mlrd so'mi yoki 4 foizi yillik aylanma mablag'lari **1 mlrd so'mgacha bo'lgan tadbirkorlik subyektlariga** (mikromoliya tashkilotlari 218 mlrd so'm, tijorat banklari 26 mlrd so'm), 459 mlrd so'mi yoki 7 foizi aylanmasi **1 mlrd so'mdan 10 mlrd so'mgacha bo'lgan tadbirkorlarga**, 1,2 trln so'mi yoki 18 foizi aylanmasi **10 mlrd so'mdan 100 mlrd so'mgacha bo'lgan tadbirkorlarga** va 4,7 trln so'mi yoki 71 foizi aylanmasi **100 mlrd so'mdan ortiq bo'lgan tadbirkorlarga** ko'rsatilgan (8-rasm).

8-rasm. Tadbirkorlik subyektlarining yillik aylanmalariga ko'ra toifalarganda faktoring xizmatlaridan foydalanish tahlili, mlrd so'm




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari


Muddatlar qirqimida 30 kungacha faktoring xizmatlari jami faktoring xizmatlarining 31 foizini (2 trln so'm), **31 kundan 60 kungacha** – 17 foizini (1,1 trln so'm), **61 kundan 90 kungacha** – 33 foizini (2,2 trln so'm), **91 kundan 120 kungacha** – 11 foizini (0,7 trln so'm) hamda **121 kundan 180 kungacha** - 8 foizini (0,6 trln so'm) tashkil qilgan (9-rasm).

Miqdorlar bo'yicha 100 mln so'mgacha faktoring xizmatlari jami faktoring xizmatlarining 1 foizini (0,08 trln so'm), **100 mln** so'mdan **500 mln** so'mgacha 10 foizini (0,7 trln so'm), **500 mln** so'mdan **1 mlrd** so'mgacha 7 foizini (0,5 trln so'm), **1 mlrd** so'mdan **5 mlrd** so'mgacha 41 foizini (2,7 trln so'm) hamda **5 mlrd** so'mdan yuqori bo'lgan faktoring xizmatlari 41 foizini (2,7 trln so'm) tashkil qilgan (10-rasm).

9-rasm. Faktoring xizmatlari muddatlari bo'yicha tahlili, foiz



10-rasm. Faktoring xizmatlari miqdorlari bo'yicha tahlili, foiz




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha faktoring xizmatlarining asosiy qismi **sanoat** sohasiga **3,5 trln** so'm (53 foiz) hamda **savdo** va **xizmat ko'rsatish** sohasiga **2,5 trln** so'm (38 foiz) yo'naltirilgan.

Shuningdek, **qurilish** va **qishloq xo'jaligi** sektorlarida har biri mos ravishda **268 mlrd** so'mlik (4 foiz) va **297 mlrd** so'mlik (5 foiz) debitorlik qarzdorliklar moliyalashtirilgan (11-rasm).

11-rasm. Iqtisodiyot sohalari bo'yicha ko'rsatilgan faktoring xizmatlari, foiz




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

II. Xalqaro faktoring amaliyotlari tahlili

Joriy yilning yanvar-sentyabr oylari davomida tijorat banklari tomonidan **152 mlrd** so'm ekvivalentidagi (*jamiga nisbatan 2%*) regress huquqi bilan xalqaro faktoring xizmati ko'rsatildi (12-rasm).

12-rasm. Kredit tashkilotlari tomonidan ko'rsatilgan xalqaro faktoring xizmatlari hajmi, mlrd so'm




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Xalqaro faktoring operatsiyalarida banklar bo'yicha eng yuqori hajm **Mikrokreditbank** (5,5 mln dollar yoki 45 foiz), **O'zmilliybank** (3 mln dollar yoki 25 foiz) , **Asakabank** (2,4 mln dollar yoki 20 foiz) tomonidan ko'rsatilgan.

Shuningdek, **Ipak yo'li banki** 946 ming dollar, 47 ming evro va 9,9 mln rubl (9 foiz), **Biznesni rivojlantirish banki** 104 ming dollar (1 foiz) miqdoridagi xalqaro faktoring operatsiyalarini amalga oshirgan (13-rasm).


13-rasm. Tijorat banklari tomonidan ko'rsatilgan xalqaro faktoring xizmatlari, ming (dollar, yevro va rubl)



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Mijozlarning tashkiliy shakli bo'yicha ko'rsatilgan xalqaro faktoring xizmatlarining taqsimotida eng yuqori ulush mas'uliyati cheklangan jamiyatlarga (**139 mlrd** so'm yoki **91,4 foiz**) to'g'ri kelgan bo'lsa, keyingi o'rinlarda xususiy, oilaviy korxona va fermer xo'jaliklarining **11 mlrd** so'mlik (7,5 foiz) va chet el kapitali ishtirokidagi korxonalarning **2 mlrd** so'mlik (1 foiz) debitorlik qarzlari faktoring xizmatlari orqali moliyalashtirilgan (14-rasm).

14-rasm. Xalqaro faktoring xizmatlari korxonalar tashkiliy shakli bo'yicha tahlili, mlrd so'm




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari


Muddatlar qirqimida 30 kungacha xalqaro faktoring xizmatlari jami xalqaro faktoring xizmatlarining 4 foizini (6 mlrd so'm), **31 kundan 60 kungacha** – 13 foizini (19 mlrd so'm), **61 kundan 90 kungacha** – 37 foizini (55 mlrd so'm), **91 kundan 120 kungacha** – 23 foizini (34 mlrd so'm) hamda **121 kundan 180 kungacha** - 24 foizini (37 mlrd so'm) tashkil qilgan (15-rasm).

Miqdorlar bo'yicha 500 mln so'mgacha xalqaro faktoring xizmatlari jami xalqaro faktoring xizmatlarining 4 foizini (6 mlrd so'm), **500 mln so'mdan 1 mlrd so'mgacha** 5 foizini (8 mlrd so'm), **1 mlrd so'mdan 5 mlrd so'mgacha** 52 foizini (79 mlrd so'm), **5 mlrd so'mdan yuqori bo'lgan faktoring xizmatlari** 39 foizini (59 mlrd so'm) tashkil qilgan (16-rasm).

15-rasm. Xalqaro faktoring xizmatlari muddatlari bo'yicha tahlili, foiz



16-rasm. Xalqaro faktoring xizmatlari miqdorlari bo'yicha tahlili, foiz




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha xalqaro faktoring xizmatlarining asosiy qismi **sanoat tarmog'iga 81 mlrd so'm (53 foiz)** hamda **savdo** va **xizmat ko'rsatish** sohasiga **68 mlrd so'm (45 foiz)** mablag'lar yo'naltirilgan.

Shuningdek, **qishloq xo'jaligi** sektorlarida **3 mlrd so'mlik (2 foiz)** debitorlik qarzdorliklari moliyalashtirildi (17-rasm).

17-rasm. Iqtisodiyot sohalari bo'yicha ko'rsatilgan xalqaro faktoring xizmatlari, foiz




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Xalqaro faktoring xizmatlarining asosiy qismi **Rossiya** (137,8 mlrd so'm yoki 91 foiz), **Belarus** (10,3 mlrd so'm yoki 6,8 foiz) bilan amalga oshirilgan.

Shuningdek, xalqaro faktoring xizmatlarining qolgan qismi **Qirg'iziston** (1,6 mlrd so'm yoki 1 foizi), **AQSH** (1,3 mlrd so'm yoki 0,8 foizi), **Italiya** (0,7 mlrd so'm yoki 0,5 foizi) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan (18-rasm).

18-rasm. Xalqaro faktoring xizmatlarining davlatlar kesimidagi tahlili,
mlrd so'm





Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

III. Faktoring xizmatlari diskont stavkasi

Tijorat banklari tomonidan mahalliy va xalqaro faktoring xizmati bo'yicha bank maxsulotlari ishlab chiqilgan bo'lib, faktoring xizmat turlarining muddatlaridan (180 kungacha) kelib chiqqan holda diskont stavkalari belgilangan.

Misol uchun, 30 kungacha bo'lgan muddatda mahalliy faktoring xizmatlari bo'yicha **Asaka bank**da 2 foiz, **O'zsanoatqurilishbank**da 1,84-2,5 foiz, **Kapitalbank**da 2 foiz va **Hamkorbank**da 2 foiz diskont stavkalari o'rnatilgan bo'lsa, ushbu banklarda xalqaro faktoring xizmatlari bo'yicha qo'llaniladigan diskont stavkalari mos ravishda 1 foiz, 1,25 foiz, 1,2 foiz va 1-1,3 foizda belgilangan (19-rasm).

19-rasm. Kredit tashkilotlarining faktoring xizmatlarida qo'llanilayotgan diskont stavkalari



Faktoring xizmatlarini ko'rsatmayotgan tijorat banklari (2025 yil 1-oktyabr holatiga)

